

Glossariy:

Oddiy gulqo‘rg‘on – Kosacha va tojbarglarga tabaqalashmagan gulqo‘rg‘on turi.

Oddiy to‘pgul – Markaziy poyada joylashgan va yonbosh novdalardagisi to‘liq rivojlanmagan to‘pgul.

Oila – Tartib va turkum oralig‘idagi sistematik kategoriya. Oila, kelib chiqishi umumiy bo‘lgan o‘zaro yaqin turkumlarni birlashtiradi.

Popuk ildiz – Asosiy ildizi kuchsiz rivojlangan yoki umuman rivojlanmagan, boshqa yon ildizlar bilan birlashib, qo‘shimcha ildizlardan ajralib turmaydigan ildiz turi. Bu ildiz asosan lalasimonlar sinfiga mansub o‘simliklarida uchraydi.